

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**PO‘LATOVA DIYORA FARXOD QIZI**

**KRISTOFER BAKLINING SIYOSIY SATIRIK ROMANLARINING  
BADIY O‘ZIGA XOSLIGI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract for Doctor of philosophy (PhD) in  
Philological sciences**

**Po'latova Diyora Farxod qizi**

Kristofer Baklining siyosiy satirik romanlarining badiiy o'ziga xosligi .....3

**Пулатова Диёра Фарход кизи**

Художественное своеобразие политических сатирических романов  
Кристофера Бакли.....24

**Pulatova Diyora Farkhod kizi**

Artistic originality of Christopher Buckley's Political Satirical  
novels.....47

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**PO‘LATOVA DIYORA FARXOD QIZI**

**KRISTOFER BAKLINING SIYOSIY SATIRIK ROMANLARINING  
BADIY O‘ZIGA XOSLIGI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.1.PhD/Fil2215 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz va rus (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Lixodziyevskiy Anatoliy Stepanovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sadiqov Zohid Yakubjanovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Nizamova Munira Nizamovna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru))

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**I.M. Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

**X.B. Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**J.A. Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida siyosiy satirik roman oʻzida satirik roman va asarda tasvirlangan mamlakat siyosiy tizimining milliy xususiyatlarini birlashtirgan janr hisoblanadi. Bu janr eng toʻla ravishda Amerika adabiyotida namoyon boʻlgan, bu Amerika siyosiy satirasining oʻziga xos xususiyatlari bilan bogʻliq. Siyosiy satira kabi ushbu janr ham siyosiy beqarorlik davrida ommaboplik kasb etadi. Bu esa Amerika siyosiy satirik romanining badiiy xususiyatlarini oʻrganishning dolzarbligini koʻrsatadi.

Zamonaviy dunyoda turli siyosiy internet dasturlari va tok-shoularning paydo boʻlishi va ommalashuvi bilan siyosiy satira yangicha mazmun ifodaladi va keng tarqaldi. Amerika adabiyoti misolida siyosiy satirik romanlarni tahlil qilish adabiyotshunoslikning istiqbolli yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi, chunki Amerika adabiyoti, mustamlaka davridan boshlab, oʻz ichiga satira hamda siyosat elementlarini qamrab olgan. Ushbu janrning yetarlicha oʻrganilmaganligi, uning zamonaviy vakillari boʻyicha tadqiqotlarning mavjud emasligi va satira mohiyati hamda uning oʻziga xos xususiyatlari boʻyicha betoʻxtov munozaralar mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini koʻrsatadi.

Oʻzbek adabiyotshunosligining muhim vazifalaridan biri jahon adabiyoti durdonalarini tahlil qilishdir. Aynan adabiyotni oʻrganish orqali yosh avlodning dunyoqarashi kengayadi: kitoblarda tasvirlangan muammolar va illatlarni oʻrganish orqali inson oʻz bilimlarini boyitadi va boshqa madaniyatlar xususiyatlari bilan tanishadi. Ayrim mualliflarning, xususan, amerikalik satirik roman vakillarining ijodini oʻrganish hozirgi kunda ham dolzarb boʻlib qolmoqda, chunki gumanizm va yuksak axloqiy gʻoyalar hanuzgacha oʻz ahamiyatini saqlab kelmoqda. Zamonaviy amerikalik yozuvchi Kristofer Bakli ijodi shu jihati bilan eʼtiborlidir. Umuminsoniy qadriyatlar va ularning zamonaviy Amerika jamiyatidagi oʻrnini aks ettirish Baklining deyarli barcha romanlariga xos asosiy mavzudir. Shu sababli uning gumanizmga asoslangan gʻoyaviy-falsafiy konsepsiyasiga zamonaviy jamiyatda talab ortib bormoqda. Bakli satirik janrlarning rivojlanishiga salmoqli hissa qoʻshdi, u nafaqat Amerika adabiyotining rivojlanishiga, balki jahon adabiyoti jarayoniga ham taʼsir koʻrsatdi. Natijada satirik roman janr sifatida hozirgi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son Farmoni, 2023-yil 28-noyabrdagi “Yoshlar uchun mingta kitob loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-380-son qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-5117-son Qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020-2025-yillarda oʻqish madaniyatini rivojlantirish va qoʻllab-

quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 781-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.<sup>1</sup>

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublikada ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishi "Axborot jamiyati va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishida innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari"ga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Amerika adabiyotini komiklik muammosi nuqtayi nazaridan D.Bir, K.Rurk, B.Granger, L.Rayt, G.Peter, A.Kauai, E.Xoll<sup>2</sup> tadqiq qilishgan.

Rus tadqiqotchilaridan M.Mendelson, N.Ovcharenko<sup>3</sup> ham Amerika adabiyoti komiklik muammosini ko'rib chiqishgan, B.Gilenson, Y.Zasurskiy, A.Vashchenko, A.Lavrentyev, N.Samoxvalov<sup>4</sup> Amerika adabiyoti muammolari bilan shug'ullanishgan. Ko'pincha komik tadqiqotlar bitta muallifni o'rganish bilan cheklanadi, shuning uchun Mendelson davridan buyon Amerika adabiyotida keng miqyosdagi komik tadqiqotlar to'liq o'tkazilmagan. Yigirmanchi asrga qadar Amerika satirasi muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa ham, zamonaviylik va asrlar chegarasi tadqiq qilinmagan.

O'zbekistonda komiklikning nazariy jihatlarini o'rganish masalalari bilan T.Boboev ("Adabyotshunoslik asoslari"), E.Xudoyberdiyev ("Adabyotshunoslikka kirish), M.Qushjonov («Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor. Maqolalar») va N.Rahimovlar («O'zbek sovet satirasi tarixidan») <sup>5</sup> shug'ullanishgan. Amerika

---

<sup>1</sup> «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»: указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28.01.2022 г. // Национальная база данных законодательства, 29.01.2022 г., № 06/22/60/0082, 18.03.2022 г., № 06/22/89/0227; 10.02.2023 г., № 06/23/21/0085; 03.01.2024 г., № 06/24/221/0003. «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан»: постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 от 19.05.2021, Дальнейшее развитие оказания информационно-библиотечных услуг населению, широкая популяризация чтения книг, а также реализация общенациональной идеи «Любящая книги нация». // Приложение №1 к № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28.01.2022 г. – 34 с.

<sup>2</sup> Bier J. The Rise and Fall of American Humor. -N. Y., Chicago, San-Francisco: Holt, Rinehart and Winston, 1968. – 506 p.; Рурк К. Американский юмор. Исследование национального характера. / Пер. с англ. Л. П. Башмаковой. – Краснодар: Кубан. гос. Ун-т, 1994. – 271 с.; Granger B. J. Political Satire in the American Revolution, 1763-1783. -N. Y., Cornele: University of Ithaca Press, 1960. – 314 p.; Petteer H. The Early American Novel. Ohio State Univ. Press, 1971. – 500 p.; Cowie A. The Rise of the American Novel. N. Y.: American Book Company, 1949.– 877 p.; Hall E. The Satirical Element in the American Novel. N. Y.: Gordon Press, 1972. – 89 p.

<sup>3</sup> Мендельсон М., Американская сатирическая проза XX века (монография) – М.: Наука, 1972. – 372 с.; Овчаренко Н. Канадская литература XX века: три грани эволюции. – Киев: Наук. думка, 1991. – 162 с.

<sup>4</sup> Гиленсон Б. История зарубежной литературы конца XIX – начала XX века. – 427 с.; Засурский Я. Американская литература XX века. – Изд-во Московского университета, 1984. – 501 с.; История литературы США. Том 1. А. В. Ващенко. Поэзия революции. Зарождение американской фольклорной традиции. Режим доступа: <http://american-lit.niv.ru/american-lit/istoriya-literatury-ssha-1/vaschenko-poeziya-revolyuicii.htm> (дата обращения: 19 июля 2021); Лаврентьев А.И. «Черный юмор» и американский характер: учеб. Пособие по спецкурсу / УдГУ. Ижевск, 2009. – 290 с.; Самохвалов Н. Американская литература XIX века. – М.: Высшая школа, 1964. – 561 с.

<sup>5</sup> Бобоев Т. Адабиётшunoslik asoslari. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 146 б.; Худойбердиев Э. Адабиётшunoslikka кириш. – Т.: «УАЖБНТ» Маркази, 2003. – 361 б.; Кушжонов М. Абдулла Қаҳҳор ижодида сатира ва юмор.

komik adabiyoti masalalarini A.Lixodziyevskiy (“XX – XXI asrlar oralig‘idagi Amerika satirik romani”)<sup>6</sup> va L.Jalilova (“XX asr boshidagi Amerika satirik novellalarida komik toifaning aks etishi”)<sup>7</sup> o‘rganishgan.

Binobarin, Amerika komik adabiyotining zamonaviy bosqichi, xususan, Kristofer Bakli ijodi misolida Amerika satirik romanining rivojlanishi na mahalliy va na xorijiy adabiyotshunoslikda o‘rganilmagan. K.Bakli ijodi bo‘yicha keng qamrovli monografik, adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar o‘tkazilmagan. K.Bakli ijodi bo‘yicha mavjud ilmiy ishlar uning siyosiy satirik romanlarini Amerika satirik an‘analarining merosi va rivojlanishi nuqtayi nazaridan qamrab olmaydi, V.Uorford – “Too absurd for satire: when Evelyn Waugh and Christopher Buckley stopped skewering their own societies”<sup>8</sup> mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi, Dj.Siegel – “Book review of Supreme Courtship: a novel by Christopher Buckley”<sup>9</sup> nomli maqola-sharhi, M.Oberyuxtina – “PR sohasidagi mutaxassisning nutq xususiyatlari badiiy ifoda vositasi sifatida (Kristofer Bakli romanlari asosida)”<sup>10</sup> maqolasi, A. Lixodziyevskiy – “Kristofer Bakli ijtimoiy satirasi”<sup>11</sup> asarlari shular jumlasidandir. Satirik yozuvchi ijodi Amerika matbuotining yirik va mintaqaviy nashrlari tomonidan ham e’tirof etilgan.

Kristofer Bakli o‘z ijodida Yevropa va AQSHning tarixiy o‘tmishi haqida satirik romanlar yaratganini qayd etgan holda biz faqat siyosiy satira yoki siyosiy elementlar mavjud bo‘lgan satirik romanlarni tanladik.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasining “Xorijiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” bo‘yicha ustuvor ilmiy yo‘nalishlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** K.Bakli ijodining Amerika komik adabiyotidagi ahamiyatini belgilaydigan siyosiy satirik romanlarining badiiy o‘ziga xosligini ko‘rsatishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun o‘z oldimizga quyidagi **vazifalarni** qo‘ydik:

---

Мақолалар. –Тошкент: Фан, 1973. –140 б.; Рахимов Н. Ўзбек совет сатираси тарихидан (1917-1959) – Тошкент: Фан, 1962. –163 б.

<sup>6</sup> Лиходзиевский А.С. Традиции американского фольклорного юмора в американском сатирическом романе второй половины XX в. // Сборник научных трудов Международной научно-практической конференции. Том 1. – Екатеринбург, 2019. – С. 123–128.

<sup>7</sup> Жалилова Л.Ж. Репрезентация категории смешного в американской сатирической новелле начала XX века. // Филология в современном мире. – Бухара, 2014. – № 4. – С. 90–92.

<sup>8</sup> Warford W. P. 2020. Too Absurd for Satire: When Evelyn Waugh and Christopher Buckley Stopped Skewering Their Own Societies. Master's thesis, Harvard Extension School. Available at: <https://nrs.harvard.edu/URN-3:HUL.INSTREPOS:37364893> (Accessed 9 September 2022)

<sup>9</sup> Siegel J., Book Review of Supreme Courtship: A Novel by Christopher Buckley. George Washington University JLE –No. 3(67). – 2018. Available at: <https://jle.aals.org/home/vol67/iss3/12/> (Accessed 15 on April 2021)

<sup>10</sup> Оберюхтина М.В. Речевая характеристика специалиста в сфере пиара как средство художественной выразительности (на материале романов Кристофера Бакли) // Вестник Самарского университета. История, педагогика, филология. 2022. №1. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/recheyaya-harakteristika-spetsialista-v-sfere-piara-kak-sredstvo-hudozhestvennoy-vyrazitelnosti-na-materiale-romanov-kristofera> (дата обращения 03.01.2024).

<sup>11</sup> Лиходзиевский А. Социальная сатира Кристофера Бакли// Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий-методик электрон журнали, № 3 (17), 2017. – С. 211–216.

Amerika siyosiy satirik roman janrining evolutsiyasi bilan bog‘liq nazariy va tarixiy-madaniy omillarni o‘rganish hamda ushbu janr asarlarini badiiy tahlil qilishning ilmiy prinsiplarini asoslash;

Mashhur amerikalik yozuvchilarning ijodi misolida, milliy komik an’analar kontekstida, AQSH satirik-yumoristik adabiyotining o‘ziga xosligini o‘rganish;

Kristofer Bakli ijodining tanqidiy baholari tahlili asosida amerikaning siyosiy hukmron doiralari, (isteblishmenti) tuzilmasiga mualliflik panoramasining asosiy jihatlarini aniqlash;

Yozuvchining Amerikaning ichki va tashqi siyosatini satirik romanlarda tasvirlashning janr xususiyatlarini, badiiy-kompozitsion vositalarni, satirik tanqid obyektlarini, badiiy detallarni va ularning o‘ziga xosligini aniqlash;

Kristofer Baklining satirik siyosiy romanlarida Amerika siyosiy voqeligini tasvirlashda novatorlik va an’anaviy yondashuvlarni farqlash;

Kristofer Baklining “Oq uydagi tartibsizlik” va “Ular kuchukchalarni eyishadi, to‘g‘rimi?” romanlarida amerika siyosatchilari va opponentlari obrazlarining tipologiyasini ularning siyosiy faoliyatlari tavsifiga asoslanib ishlab chiqish;

“Oq uydagi tartibsizlik” va “Ular kuchukchalarni eyishadi, to‘g‘rimi?” romanlarida Kristofer Baklining o‘ziga xos individual mualliflik uslubi hamda voqelikni satirik tasvirlash metodini aniqlash.

Dissertatsiya **tadqiqot obyekti** Amerika adabiyoti satirik siyosiy romanining o‘ziga xosligidir.

**Tadqiqot predmetini** K.Bakli satirik asarlarining badiiy o‘ziga xosligi, ularning g‘oyaviy va tematik, janriy xususiyati, tili va uslubining o‘ziga xosligi tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari:** madaniy-tarixiy usul; biografik usul; yaxlit yondashuv va ijtimoiy-siyosiy yondashuvdan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilar bilan belgilanadi:

Amerika siyosiy satirik roman janrini tahlil qilish prinsiplari mashhur amerikalik yozuvchilar ijodi misolida komik nazariya va AQSHning tarixiy-madaniy rivojlanish omillari bilan bog‘liq holda asoslangan;

Kompozitsiya tuzilishi, sujet, obrazlar tizimi, satirik tanqid obyektlari, satirik mojarolar xususiyatlari, shuningdek, yozuvchi ijodining tanqidiy baholanishi asosida zamonaviy Amerika siyosatining mualliflik konsepsiyasi aniqlangan;

Kristofer Baklining “Oq uydagi tartibsizlik” (The White House Mess, 1986) va “Ular kuchukchalarni eyishadi, to‘g‘rimi?” (They Eat Puppies, Don’t They? 2012) satirik siyosiy romanlarida amerikalik siyosatchilar va ularning raqiblari obrazlarining tipologiyasi ishlab chiqilgan, zamonaviy amerikalik siyosatchining mualliflik tavsifi izohlangan;

K.Bakli Amerika komik an’analariga ergashib, satirik siyosiy roman janriga mavzular, g‘oyalar, satira yaratish usullari va vositalari darajasida o‘zgarishlar kiritib, tasvirlashni siyosiy haqiqatlar bilan boyitgani aniqlandi, bu esa yozuvchining Amerika adabiyotidagi o‘ziga xos o‘rnini tasdiqlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Mavjud nazariyalarni o'rganish orqali satirik asarlarning mohiyati va xususiyatlari haqida adabiyotshunoslik tahlili uchun mezonlar ishlab chiqilgan.

Amerikalik satiriklarning asarlarini ko'rib chiqish asnosida Amerika siyosiy satirasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi Amerika milliy komik an'anasining o'ziga xosligi ajratilgan.

Kristofer Baklining asarlari asosida zamonaviy Amerika siyosiy satirik roman janrining rivojlanish bosqichlari va yozuvchining zamonaviy Amerika adabiy jarayonidagi o'rni aniqlangan. Dissertatsion tadqiqot natijasi Baklining siyosiy satirik asarlarining kompleks tahlilidir.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** obyektga yondashuv va qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan siyosiy satirik romanlarining tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar tarixiy-madaniy, yaxlit hamda ijtimoiy-siyosiy tahlil usullari bilan asoslanganligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Ilmiy tadqiqot natijalarining ahamiyati shundaki, shakllantirilgan xulosalar zamonaviy jahon adabiyoti, K.Bakli ijodi, «satira» tushunchasi va uning badiiy o'ziga xosligi, satirik janrlarning kompozitsiyasi, til vositalari bilan ifodalanishi xususiyatlari haqidagi mavjud nazariyalarni kengaytiradi, shuningdek, Amerika siyosiy satirik romani janrini o'rganish bo'yicha ilmiy ishlarni amalga oshirishda keng qo'llash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular amerika siyosiy satirik romanining badiiy xususiyatlarini aniqlashda hamda "O'rganilayotgan til mamlakati adabiyoti", "Adabiy-badiiy tahlil usullari", "Adabiy tanqid tarixi", "Adabiy yo'nalishlar evolutsiyasi" kabi maxsus kurslarni o'qitishda, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, majmualar, lug'atlar yaratishda, doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari, maqolalar, bitiruv malakaviy va kurs ishlarini yozishda foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** K.Bakli siyosiy satirik romanlarining xususiyatlarini aniqlash natijasida olingan nazariy takliflar va amaliy natijalar asosida:

Amerika siyosiy satirik roman janrining genetik, tipologik, funksional, falsafiy va psixologik tahlil yo'nalishlari va prinsiplari, aks ettirayotgan davr, voqealar mohiyatini badiiy ifoda etishda ijodkorning satirik mahorati va asarning estetik qimmatini mashhur amerikalik yozuvchilar ijodi misolida komik nazariya va AQShning tarixiy-madaniy rivojlanish omillari bilan uzviylikda asoslanganiga oid nazariy xulosalardan Erasmus+ ICM, KA-107-International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, 2020-1-UK01-KA107-078419 xalqaro loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 9-apreldagi 01/216-son ma'lumotnomasi). Natijada nazariy va amaliy

materiallar madaniy xilma-xillikni izohlashga hissa qo‘shgan va loyiha doirasida yaratilgan o‘quv-uslubiy majmuani nazariy jihatdan boyitgan;

kompozitsiya tuzilishi, sujet, obrazlar tizimi, personajlar xatti-harakatlari xarakter mantig‘iga muvofiq kelishi yoki kelmasligi muammosi, satirik tanqid obyektlari, satirik an‘analarning adabiy-estetik xususiyatlari, tasvirlanayotgan voqeani kutilmagan yechim bilan xulosalash voqealar rivojining portlash kuchini, uning satirik quvvatini, badiiy effektini oshirishi, shuningdek, yozuvchi ijodining tanqidiy baholanishi asosida zamonaviy Amerika siyosatining badiiyatga ko‘chirilishida original mualliflik konsepsiyasi aniqlangani xususidagi mulohazalardan Britaniya Kengashining 1683580 raqamli “English as a school subject” xalqaro loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 9-apreldagi 01/215-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu ma‘lumotlar maktab o‘quvchilariga AQShning til va adabiyoti bilan tanishishga imkon beradigan o‘quv materiallarini yaratishga xizmat qilgan;

Kristofer Baklining “Oq uydagi tartibsizlik” (“The White House Mess”, 1986) va “Ular kuchukchalarni yeyishadi, to‘g‘rimi?” (“They Eat Puppies, Don’t They?”, 2012) satirik siyosiy romanlaridagi amerikalik siyosatchilar va ularning muxoliflari obrazlarining tipologiyasi, zamonaviy amerikalik siyosatchining badiiy mazmun qirralari davr muammolari negizida dalillangani hamda K.Bakli Amerika komik an‘analari ta‘sirida satirik siyosiy roman janriga, shakl va mazmun unsurlari tasviriga, satira yaratish usullari va vositalariga o‘zgarishlar kiritgani, badiiy ifodani siyosiy haqiqatlar bilan boyitgani yozuvchi uslubidagi o‘ziga xoslik ekani aniqlangan holda, satirik asar va ijodkor matonati, badiiy asar hamda jamiyat munosabati, satirik romanda qahramon ruhiyatining ifodalanish yo‘sini kabi mezonlar isbotlangani to‘g‘risidagi xulosalardan Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vazirligi va Rossotrudnichestvo diplomatik akademiyasining dolzarb xalqaro muammolar instituti “tahlil laboratoriyasi” nomli xalqaro qo‘shma amaliy loyihasida foydalanilgan (2023-yil 12-sentabrdagi 2/120923-son ma‘lumotnomasi). Natijada tahliliy materiallar trening topshiriqlari majmuasida analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta konferensiyada, xususan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 3 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, ulardan 3 tasi respublika jurnallarida, 1 ta maqola esa Web of Scienceda indekslangan jurnalda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 126 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** tadqiqotning dolzarbligi va zarurligi, muammoni o'rganish darajasi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, ilmiy yangiligi ko'rsatilgan, ilmiy va amaliy ahamiyati, ishonchliligi, olingan natijalarning joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va tadqiqot tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

**“Satira nazariyasidagi bahsli masalalar va uning amerika milliy o'ziga xosligi”** deb nomlangan birinchi bobda satira, yumor va kulgi o'rtasidagi bog'liqlikka oid nazariy masalalar ko'rib chiqilgan. Satira ta'rifi aniqlangan, Amerika satirik romanining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Ushbu bobda Amerika siyosiy satirik romani va Amerika satirik an'analarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Adabiyotshunoslar orasida satira nafaqat voqelikni badiiy tasvirlash usuli va komiklikning o'ziga xos turi, balki adabiyot va san'at turi<sup>12</sup>, pafos<sup>13</sup> sifatidagi qarashlar vujudga kelgan. Satira adabiyotning bir turi degan fikr bir necha bor rad etilgan, chunki satira o'ziga xos janr tuzilmalariga ega emas va allaqachon mavjud bo'lgan barcha satirik janrlar birinchi navbatda epik, lirik yoki dramatik janrlardir. Biroq satirik tasvir tamoyili adabiyotning uchta turidan birining ichki strukturasi doirasida har qanday janr tuzilishiga o'zgarishlar kiritadi. Shunday qilib, yangi paydo bo'lgan satirik janr har safar allaqachon mavjud bo'lgan dramatik, epik yoki lirik janrga aylanadi. Shu tariqa satirik komediya sujet, obrazlar tizimi va ziddiyat jihatidan kundalik yoki lirik komediyadan farq qiladi, ammo janr xususiyatlariga ko'ra komediya bo'lib qolaveradi.

Satirik obyektlar va hodisalarning salbiy tomonlarini fosh qilish niyatida satirani nafaqat janr xilma-xilligi, balki voqelikni tasvirlashning maxsus mafkuraviy va badiiy usuli sifatida tanlaydi.

Shunday qilib, satirik roman – bu o'zgartirilgan roman bo'lib, unda romanning janr xususiyatlari saqlanib qolgan, ammo shu bilan birga kompozitsiya, sujet, obrazlar tizimi, personajlar va konfliktlarni ochib berish tamoyillari hayotni tasvirlashning satirik uslubiga bo'ysunadi. Satirik tasvir mavzusini, tasvirlar tizimini, ziddiyatni va satirik tipiklashtirish vositalarini aniqlash satirik asarni o'rganishning asosini tashkil etadi.

Voqelikni aks ettirishning satirik usuliga xos jihatlar aks ettirilayotgan predmetda namoyon bo'ladi. Satira tadqiqotchilarining aksariyati satirik kulgi mavzusi salbiy narsa, bu inson va ijtimoiy illatlar, kamchiliklar bo'lishi mumkin degan fikrni ma'qullaydilar. Bu qarashlarni Aristoteldan Elsberggacha va zamonaviy tadqiqotchilargacha kuzatish mumkin.

Biror narsa yoki hodisani satirik ravishda qoralash komikliksiz bo'lishi mumkin emas. Komiklikning barcha nazariyalarini umumlashtirib, xulosa

<sup>12</sup> Саватеев В. Сатира как род литературы / В. Саватеев // Вопросы литературы. – 1968. №11. – С. 226–227.

<sup>13</sup> Клейман Р.Я. Мениппейные традиции и реминисценции Достоевского в повести М.Булгакова «Собачьё сердце» [Текст] / Р.Я.Клейман // Достоевский: Материалы и исследования. – Л., 1991. – Вып. 9. – С. 121.

qilishimiz mumkinki, komiklik – bu shakl va mazmun o‘rtasida, ko‘rinish yoki iddao va haqiqiy mohiyat o‘rtasida bo‘lishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshilikning bir turi.

Komiklik satiradan kengroq. Satira – bu komiklikning o‘ziga xos turi. Ushbu korrelatsiya komiklikning mohiyatini va uning satira bilan bog‘liqligini tushuntirishga qaratilgan bir nechta urinishlar natijasida yuzaga kelgan chalkashliklarni tushuntiradi. Komiklikning mohiyati to‘g‘risida mavjud bo‘lgan ko‘plab ta‘riflar va keng tarqalgan fikrlarga qaramay, ushbu tadqiqot doirasida biz komiklikni kulgi bilan sinonim deb bilamiz.

Satirik tomonidan tanlangan satirik tanqid obyektiga, asarning mavzusi va muammolariga qarab, satirik roman siyosiy, ijtimoiy, tarixiy va boshqalar bo‘lishi mumkin. Amerika adabiyotida siyosiy satirik roman alohida e‘tiborga loyiqdir, chunki satirik tanqid mustamlakachilik davridan beri amerikalik yozuvchilarning siyosiy asarlarida mavjud bo‘lgan va bu janr Amerika adabiyotida ham keng tarqalgan. Bunday asarlardagi badiiy va siyosiy tarkibiy qismlarning nisbati teng emas, ularda satira ustunlik qiladi. Siyosiy satiraning gullab-yashnashi iqtisodiy inqirozlar, jangovar harakatlar va ijtimoiy beqarorlik davrlariga to‘g‘ri keladi.

Zamonaviy Amerika siyosiy satirik romani bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar mavjud emas. Adabiyotshunoslikda Amerika siyosiy romani va Amerika satirik romani alohida-alohida holda taqdim etilgan. J.Blotner, B.Foley, I.Xou, G.Miln, T.Rid, U.Raydaut, T.Shaub, M.Spir, M.Sharipov, N.Zaychikova<sup>14</sup> tomonidan Amerika siyosiy romani o‘rganilgan.

Amerika satirik romanini M.Mendelson, B.Gilenson, Y.Zasurskiy, T.Motyleva, I.Samoxvalov, A.Startsev, I.Bushkanets, P.Bykova, N.Byakova, M.Asanina<sup>15</sup> tadqiq qilishgan.

19-asrdagi Amerika komik siyosiy romani, xususan uning tipologiyasi o‘zbekistonlik olim A.Lixodziyevskiyning<sup>16</sup> tadqiqotida keltirilgan bo‘lib, u 19-asrdagi Amerika romanlari misolida Amerika siyosiy satirik-yumoristik romanini ochib berdi. Tipologik jihatdan, olimning fikriga ko‘ra, ushbu roman bir nechta turlarda taqdim etilgan. Bular – roman-fars va roman-siyosiy biografiya. Biz olimning fikriga qo‘shilamiz va Amerika satirik siyosiy adabiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida ushbu tipologiya qo‘llanilishi mumkinligiga ishonamiz.

---

<sup>14</sup> Blotner J. The Modern American Political Novel: 1900-1960. – University of Texas Press, 2014. – 293 p.; Foley B. Radical Representations: Politics and Form in U.S. Proletarian Fiction, 1929-1941. – Duke University Press, 1993. – 386 p.; Milne G. The American Political Novel. – University of Oklahoma Press, 1966. – P. 210.; Rideout W. The Radical Novel in the United States, 1900-1954. – Cambridge: Harvard University Press, 1956. – P. 20.; Speare M. The Political Novel: Its Development in England and in America. –New York: Oxford University Press, 1924

<sup>15</sup> Мендельсон М.О. Американская сатирическая проза XX века (монография) – М.: Наука, 1972. – 372. с.; Гиленсон Б.А. Панорама американской сатиры. // Вопросы литературы. –1974. №1. – С. 279-283.; Засурский Я.Н. Американская литература XX века. – Изд-во Московского университета, 1984. – 501 с.; Мотылева Т.Л. Зарубежный роман сегодня. – М.: Сов. писатель, 1966. – 472 с.; Самохвалов Н.И. Американская литература XIX в: очерк развития критического реализма. – М.: Высшая школа, 1964. – 562 с.; Старцев А.И. Американская повесть. – М.: Художественная литература, 1991. – 429 с.; Асанина М.А. «Смеховое слово» в художественной прозе У. Фолкнера второй половины 1920-х – начала 1930-х годов: на материале произведений «Йокнапатофского цикла»: Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Мордовский государственный университет, 2004.

<sup>16</sup> Лиходзиевский А.С. Типология комического романа в литературе США XIX века: монография. – Т.: УзГУМЯ, 2007. – 156 с.

Tipologiyaga asoslanib, Bakli romanlarini tahlil qilishda foydalanadigan siyosiy satirik roman tahlilining asosiy elementlarini ajratib ko'rsatamiz:

1. Satirik ikkala turda ham umumlashtirishga intiladi, lekin personajlarning harakatlari yoki xarakterning o'ziga xosligi orqali qonuniyatlar va umumlashmalarni har xil yo'llar bilan namoyish etadi.

2. Romandagi sujet muhim emas, satirikning qaroriga qarab u turlicha bo'lishi mumkin.

3. Satirik tanqid obyektini romanning mafkuraviy va tematik mazmunini belgilaydi.

4. Konfliktni yaratish va hal qilish vositalari satirik bo'lishi shart.

5. Romandagi satirik tasvirlar asosan statik personajlar bilan ifodalanadi. Ular satirik tomonidan fosh etilgan ma'lum bir xususiyatni ifodalaydi. Hikoyada satirik motivlarni, chuqur ichki dunyoni, obrazning oldingi tarixini ko'rsatmaydi.

Amerika satirik siyosiy roman janrining shakllanishi va rivojlanishining dastlabki bosqichi quyidagi mualliflar ijodida taqdim etilgan: H.Brekenrij "Zamonaviy ritsarlik" (*Modern Chivalry*, 1792-1816), F.Kuper "Monikinlar" (*The Monikins*, 1835), G.Melvilning "Mardi" (*Mardi and a Voyage Thither*, 1849) va "Firibgar" (*Confidence-man*, 1857) romanlari, D.Kennedi "Kvodlibet" (*Quodlibet: Whig counterattack*, 1840), D.Lokk "Qog'oz shahar" (*A Paper City*, 1861) va M.Tven "Qirol Artur qasridagi Konnektikut yankilari" (*A Connecticut Yankee in King Arthur's Court*, 1889). H.Brekenrij ushbu janrga asos solgan, F.Kuper va G.Melvil bu janrni shakl va mazmun jihatidan boyitgan, Tven esa uni hozirgi kungacha tanib bo'ladigan darajada shakllantirgan. Ushbu janrning ildiz otishi mustaqillik uchun kurash davri, adabiyot birinchi navbatda normativ qarashlar tizimini tarqatish vositasi sifatida qabul qilingan davrlarga borib tutashadi.

XX asr boshidagi Amerika jamiyatining illatlari Genri Menken, Robert Benchli va Jeyms Turber kabi yozuvchilar tomonidan ko'rib chiqilgan. Shu davrda Amerikaning siyosiy hayoti haqida uncha taniqli bo'lmagan satirik Uill Rogers faol fikr bildirgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda satirada "ommaviy" jamiyatni masxara qilish uchun burilish yuz berdi. "Ushbu jamiyatning qarama-qarshiliklari, uning kontrastlari satira uchun boy material berdi, uning shakllarining xilma-xilligini Rey Bredberi va Ayzek Asimovning "kosmik" groteskidan tortib, Cheeverning kinoyali psixologizmiga qadar oldindan belgilab qo'ydi".<sup>17</sup> O'zgarishlar Amerika satirasi uchun an'anaviy bo'lgan usullarga ham ta'sir qildi, shuning uchun Lengston Xyuz ijodida satirik muloqot uning unchalik mashhur bo'lmagan Finlining o'tmishdoshi Piter Dannga qaraganda qat'iyroq va jasurroq bo'lgan.

Siyosiy satirada Art Buxvald siyosiy felyeton janrini "jiddiy" adabiyot fenomeniga o'zgartirgan.

Bugungi kunda komik an'ana Amerikada adabiyotda, televideniya, sahnada mavjuddir. Tarixiy jihatdan, barcha yirik amerikalik yozuvchilar sahnada, shu

---

<sup>17</sup> Мендельсон М. О. Американская сатирическая проза XX века. – М.: Наука, 1972. – 372 с.

jumladan Mark Tven ham sahnada chiqish qilishgan, bugungi kunda ushbu an'ananing davomi K.Trillin, T.Noa va J.Karlin ijodida ko'rinadi.

**“K.Bakli nazarida Amerika siyosiy tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bob tanqidchilar va adabiyotshunoslar tomonidan Bakli ijodining tanqidiy baholanishi, yozuvchining AQSH ichki va tashqi siyosatidagi satirik tanqidining asosiy obyektlarini aniqlashi, satirikning mafkuraviy va estetik pozitsiyasini aniqlash va Bakli ijodida Amerika satirik an'analarning davomini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Yozuvchi ijodini batafsil tahlil qiladigan katta monografiyalar hozircha mavjud emas, Shuning uchun Kristofer Bakli ijodi Amerika matbuoti sahifalarida paydo bo'lgan retsensiyachilar, adabiy sharhlovchilarning baholarida ko'rinadi.

Satirik ijodini va uning Amerika siyosiy hayotining nozik tomonlarini aks ettirish qobiliyatini yuqori baholagan bosma nashrlardan “New York Times”, “Washington Post”, “Christian Science Monitor”, “Fortune”, “National Review”, “New York Daily News”, “Associated Press”, “Houston Chronicle”, “San-Francisco Chronicle”, “Cleveland Plain Dealer”, “Kirkus Reviews” kabi nashrlar ajralib turadi.

Biroq Bakli satirasi bir nechta qirralarga ega. U istehzoli va yumorga yaqinlashib xotirjamroq bo'lishi mumkin. Ushbu holat “USA Today” nashrining maqolasida ham qayd etilgan: “...What sets Buckley apart is his ability to mock Washington yet convey a genuine admiration for many of its residents...”.<sup>18</sup>

Bakli ijodiga tom Vulf, Jon Apdayk, Jozef Xeller kabi mashhur yozuvchilar e'tibor qaratishgan, ular adib iste'dodini e'tirof etishgan. Tom Vulf Bakli ingliz tilidagi eng yaxshi yozuvchilardan biri sifatida tasvirlangan: “One of the funniest writers in the English language.” Jozef Xeller ham Bakli ijodini ijobiy tavsiflagan: “An effervescent joy”.<sup>19</sup>

Olimlar va tadqiqotchilardan Bakli ijodini, uning “Oliy tutqanoqlar” (*Supreme Courtship*, 2008) romanini yuridik fanlar professori va amaliyotchi huquqshunos Jonatan Siegel o'rganib chiqqan. Siegel o'z maqolasida ushbu romanni huquqiy ma'lumotlarning ishonchliligi nuqtayi nazaridan tavsiflaydi va uni ijobiy baholaydi.<sup>20</sup>

Tadqiqotchi Uilyam Uorford o'z dissertatsiyasida Bakli ijodiga e'tibor qaratdi. Uorford Baklini britaniyalik yozuvchi va jurnalist Ivlin Vo bilan taqqoslab, ularning tarjimai hollari o'xshashligini ko'rsatgan: ikkala yozuvchi ham ajoyib ma'lumotga ega bo'lgan boy oilalardan va ularning romanlaridagi satira umumiylikka ega.

Uorford “Oq uydagi tartibsizlik” (*The White House Mess*, 1986), “Yashil odamchalar” (*Little Green Men*, 1999), “Bu yerda chekiladi” (*Thank You for Smoking*, 1994) romanlarini satirikning o'zi o'sgan va yashagan jamiyatga nisbatan pozitsiyasi nuqtayi nazaridan o'rgangan.

<sup>18</sup>Отзывы о творчестве К.Бакли. Режим доступа: [www.amazon.com/They-Eat-Puppies-Dont-Novel-ebook/dp/B005UK9TKC/ref=sg\\_1](http://www.amazon.com/They-Eat-Puppies-Dont-Novel-ebook/dp/B005UK9TKC/ref=sg_1) (дата обращения 20.05.2023)

<sup>19</sup> Отзывы о творчестве К.Бакли. Режим доступа: <https://christopherbuckley.com> (дата обращения 12.09.2021)

<sup>20</sup> Siegel J., Book Review of *Supreme Courtship: A Novel* by Christopher Buckley. George Washington University JLE –No. 3(67). – 2018. Available at: <https://jle.aals.org/home/vol67/iss3/12/> (Accessed on April 15, 2021)

Satirikning ijodi ijtimoiy satira nuqtayi nazaridan zamonaviy o'zbekistonlik olim A.Lixodziyevskiyning "Kristofer Baklining ijtimoiy satirasi" maqolasida ko'rsatilgan<sup>21</sup>.

Zamonaviy rus tadqiqotchilaridan Bakli ijodini M.Oberyuxtina ko'rib chiqqan. Oberyuxtina o'z maqolalarida tilshunoslik, xususan PR diskurs nuqtayi nazaridan "Bumerang kuni" (Boomsday, 2007), "Bu yerda chekiladi" va "Birinchi xonim bilan bunday qilinmaydi" (*No Way to Treat a First Lady*, 2002) kabi romanlarni tahlil qilgan.

Shunday qilib, Kristofer Bakli ijodini siyosiy satira nuqtayi nazaridan hech kim ko'rib chiqmagan.

Satirik ijodini ko'rib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, siyosatchilarning soxtaligi va korrupsiya muammosi ko'pincha janr bo'yicha siyosiy satirik romanlar bo'lmagan satirik romanlarda ko'rib chiqiladi.

"Bu yerda chekiladi" asarida Bakli rivojlangan lobbizm industriyasini satirik tanqid qiladi. Yolg'on va korrupsiya ushbu romanda ezgu niyatlar ostida yashirilmagan. Romanning bosh qahramoni Nik Neylor pul evaziga tamaki korporatsiyasi manfaatlarini himoya qiladi va atrofdagilarni chekishning foydaliligi haqida ishontiradi. Shu tarzda, Bakli yolg'on targ'ibot ongli ravishda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Bu qahramonlarning ahmoqligi tufayli emas, balki rejalashtirilgan va hisob-kitob bilan amalga oshirilgan faoliyatdir. Ammo Bakli Nikni qoralamaydi, sohani yo'q qilishga intilmaydi, balki sanoatning teskari tomonini ko'rsatadi. Muallifning tanqidi bosh qahramon – lobbist Nik Neylorning o'zini "merchant of death" (o'lim savdogari) deb atagan o'z kinoyasida aks etadi.<sup>22</sup>

"Yashil odamchalar" Amerika jamiyatida mashhur bo'lgan kelgindilar tomonidan o'g'irlash haqidagi ko'plab fitna nazariyalar masxara qilinadi. Ammo ushbu romanda siyosiy tarkib ham mavjud, xususan, dastlabki sahifalardan satirik yirik moliya va siyosatchilar o'rtasidagi bog'liqlikni, siyosiy reyting va hokimiyat uchun jamoatchilikni aldashga tayyorligini fosh etadi.

Yolg'on prezidentning reytinglar uchun tok-shouga chiqib, unda provokatsion savollarga javob beradigan sahnada tasvirlangan. Prezident soliq to'lovchilar puliga qurilgan kosmik stansiyaning kelajakdagi foydalari haqida ochiqchasiga yolg'on gapira boshlaydi: "The president pressed play and, straining against the weariness of reciting it all for the two hundredth time, began to tick off the bountiful spin-offs that Celeste would bring to earth: glorious advances in... machinery lubricants, long-distance telephone networks, sewage treatment, robotic wheelchairs, insulin pumps, pacemakers, research on cures for osteoporosis, diabetes..."<sup>23</sup> Muhimi shundaki, prezident nafaqat yodlangan matnni aytadi, balki buni mexanik tarzda, o'z va'dalarining bema'niligini anglamasdan amalga oshiradi, chunki kosmik stansiya va osteoporoz yoki diabetni davolash o'rtasidagi bog'liqlik ochiq yolg'onidir.

"Birinchi xonim bilan bunday qilinmaydi" kitobi sud jarayonlari va advokatlarga bag'ishlangan satira bo'lsa-da, uning asosida siyosiy tarkib – Bill

<sup>21</sup> Лиходзиевский А. Социальная сатира Кристофера Бакли// Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий-методик электрон журнали. – № 3 (17). – 2017.– С. 211–216.

<sup>22</sup> Buckley Ch. Thank You for Smoking. – NY: Random House, 1994. – P. 52.

<sup>23</sup> Buckley C. Little Green Men. 1st Perennial edition. – Harper Perennial, 2000. – P. 9.

Klinton va Monika Levinski munosabatlari oshkor bo'lgandan keyin yuzaga kelgan mojaro mavjud. Mojaro Klintonning ikkinchi prezidentlik muddatining katta qismini egallab oldi va yuridik mojaro, ommaviy axborot vositalarining yoritishi va doimiy nazorat bilan kechdi. Romandagi siyosiy tarkib real prototiplarga – Amerika siyosatchilariga o'xshashligi orqali ko'rsatiladi. Xuddi Xillari Klinton singari, Elizabet Makman ham bo'lajak prezident bo'lgan eri bilan yuridik fakultetda tanishgan. Makmanni haddan tashqari ambitsiyaliligi uchun tanqid qilishadi, eri bilan bog'liq ishlar esa sharmandali mavzuga aylangan.<sup>24</sup> Kitobda Kennedi prezidentligi haqida ham “ishoralar” mavjud: Prezident Makman ham urush qahramoni bo'lgan, jarohat olgan va o'ldirilgan.<sup>25</sup>

Siyosiy yolg'on Baklining “Oliy tutqanoqlar” (Supreme Courtship, 2008) satirik romani orqali ham tasvirlangan. Ushbu asarda Bakli AQSHning sud tizimini tanqid qiladi, biroq bu romanda satirik kongressmenlarning ish prinsipi va siyosatning mohiyati haqidagi e'tiqodlarini ham ko'rsatadi. Sujetda prezidentning grotesk obrazi yaratilgan, uning ishi burokratik marosimga qisqartirilgan va u “Don Veto” laqabini olgan.

Satirik prezidentning ertalab ishga qanday tayyorgarlik ko'rayotganiga e'tiborni qaratadi: “unscrewed the cap of the presidential veto pen, and gone to work.”<sup>26</sup> Prezident uchun eng muhim narsa veto ruchkasini unutmastir. Prezidentning ishi kongressmenlarning moliyaviy so'rovlarini rad etishdan iborat bo'lsa, kongressmenlarning ishi bir shtatdan ikkinchisiga mablag' o'tkazishdan iboratdir. Kongressmenlar ishi tasvirlangan so'zlar kinoyali ohangda bo'lib, davlat budjetini talon-toroj qilish va “moliyaviy manipulatsiyalar” ular uchun faqat ish emas, balki chaqiriqdir: “understand that their main job, their highest calling, their truest democratic function, is to take money from other states and funnel it to their own.”<sup>27</sup>

“Bumerang kuni” romani orqali saylov tizimi hajv qilingan. Bu yerda davlat budjetini optimallashtirish g'oyasi bema'nolik darajasiga yetkazilgan va «Baby Boomer» avlodini o'z joniga qasd qilishga chaqiruv bilan niqoblangan. Washington jamiyatining kinoyasi va har qanday voqealarni o'z foydasiga aylantirish qobiliyati senator Jeperson va Kassandra halokati muhokama qilingan sujet epizodida tasvirlangan. Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha boshliq Terri Taker avtohalokatni olamning kengayishiga olib kelgan katta portlash bilan solishtiradi: “...the big bang that expanded our universe.”<sup>28</sup> Ushbu metaforada “olamning kengayishi” ko'proq saylovchilarni, urush faxriysi obraziga xayrixoh odamlarni jalb qilishni anglatadi.

Senat saylovlarida g'alaba qozonish uchun oyoq-qo'lini yo'qotib o'zidan urush qahramoni obrazini yaratishda satira yaqqol namoyon bo'ladi. Siyosiy nomzod g'alaba uchun hamma narsaga tayyor, iste'dodli PR mutaxassisi Terri Taker esa faqat obrazni shakllantirishga yordam beradi. Senator o'z ahmoqligi tufayli oyog'idan

<sup>24</sup> Бакли К. Т. С первой леди так не поступают: роман / Кристофер Бакли; пер. с англ. В. Когана. – М.: Астрель: Corpus, 2012. – 448 с.

<sup>25</sup> Buckley Ch. No Way to Treat a First Lady. – NY: Random House, 2002. – 314 p.

<sup>26</sup> Buckley Ch. Supreme Courtship. – NY: Twelve, 2008. – P.18.

<sup>27</sup> shu manbada: B.17

<sup>28</sup> Buckley Ch. Boomsday. – NY: Twelve, 2007. – P 65.

ayrilganidan yoki AQSH harbiy idorasida yosh qizning karyerasini buzganidan afsuslanmaydi.

Yozuvchi ijodidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri siyosiy satirik romanlarga “Oq uydagi g‘alayon” va “Ular kuchukchalarni eyishadi, to‘g‘rimi?” asarlari mansubdir. Satirik ushbu romanlarda davlat siyosatining asosiy tamoyillarini bayon qiladi:

1. Savodsiz ichki siyosat.

2. Ichki siyosat asosida tashqi siyosatni qurish.

3. Xodimlar tasodifiy tanlanadi, chunki ular rahbariyatning ko‘rsatmalarini bajaradigan, prezidentga maslahat beradigan va vazifalarning bajarilishini nazorat qiladigan bo‘ysunuvchilardir.

“Oq uydagi notinchlik” romanida Bakli bu tamoyillarni satirik vaziyatlar va obrazlar orqali namoyish etadi. Roman siyosiy memuar janrida prezidentning ish boshqaruvchisi nomidan yozilgan. Ushbu roman personajlar – ma‘muriyat xodimlariga alohida e‘tibor beradi. Bu Bakli ushbu romanda ochib bergan tartibsizlik muhitini yaratadigan ishchilardir.

Roman sarlavhasidagi “mess” so‘zi oq uydagi ma‘lum bir joyga – oshxonaga ishora qiladi. Ma‘muriyat xodimlari oshxonani o‘zaro tartibsizlik deb atashadi, bu holatni hisobga olgan holda, Bakli roman sarlavhasida Amerika siyosatining “beshigi”ga munosabatini ko‘rsatadi. Bakli hikoyaning boshida oq uyning turli kabinetlarini o‘rta asr feodal yerlari bilan taqqoslaydi, shu bilan ko‘p vaqt va kuch mamlakatni boshqarishga ham, bir-biriga qarshi fitna uyushtirishga ham sarflanishini ta‘kidlaydi. Fuqarolik nizolaridagi mukofot imtiyozlardir. Ular oq uydagi hamma narsani belgilaydilar, ular ma‘lum bir xodimning hokimiyat vertikalidagi mavqeyi to‘g‘risida hukm chiqaradilar. Hokimiyat imtiyozlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: prezidentga yaqinlik, limuzinlar, tennis korti, texnik xizmat ko‘rsatish va turargoh.

“Ular kuchukchalarni eyishadi, to‘g‘rimi?” romanida (*They eat puppies, Don't they?* 2012) Bakli tashqi siyosat muammosiga alohida e‘tibor qaratadi, uni ikki yirik davlat – AQSH va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar misolida ko‘rsatadi.

Romanning nomi – “*They eat puppies, Don't they?* – bu ba‘zi amerikaliklarning tor fikrliligi haqidagi satira, chunki u xitoyliklarning taomlanishi haqidagi stereotipni aks ettiradi. Roman militaristik tashqi siyosatni fosh qiladi, uning asosi 2001-yil 9-sentabrdagi “Al-Qoida” tashkilotining terroristik hujumi tashkil qiladi.

Keyinchalik amerikalik siyosatchilar milliy fojiani urush harakatlarini boshlash uchun bahona sifatida ishlatishgan, Buckley romanida militaristlar ushbu tadbirdan mablag‘ olish uchun qanday foydalanganligi ko‘rsatilgan.

Roman 2011–2012-yillarda, xitoylarning Tibetga bo‘lgan munosabati yigirmanchi asrning o‘rtalaridagidek qolganda, Tibetning Mao rahbarligida Xitoyga qo‘shilish paytini anglatadi. Bakli Tibetdagi qo‘zg‘olonlarning qonli bostirilishini, ommaviy otishlarni bir necha bor ta‘kidlaydi.

Shunday qilib, Tibet masalasi, xususan, Dalay Lama hazratlariga bo‘lgan munosabat sujetni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan.

Dissertatsiyaning “**K.Bakli satirik romanlaridagi siyosiy arbob turi**” deb nomlangan uchinchi bobida Bakli siyosiy satirik romanlaridagi satirik obrazlar ko‘rib chiqilgan va asarda keltirilgan xususiyatlar asosida satirik obrazlar tipologiyasi qurilgan.

